



**Gulnoza SAMADOVA,**  
*Shahrisabz davlat pedagogika instituti tayanch doktoranti,*  
*E-mail: gulnozasamadova98@gmail.com*

*ShDPI dotsenti, PhD D.Qalandarova taqrizi asosida*

### A STUDY OF TURKISH STORIES AND FOLKLORE ELEMENTS IN THEM

Annotation

This article analyzes the study of Turkish storytelling and its folklore elements in literary studies. The study examines the structural features of the short story genre, the issue of national type and character, social realism, and the scientific interpretations of literary scholars within the framework of intertextual and postmodern approaches. Also, from the point of view of literary theory, the functional and semantic functions of folklore elements – proverbs and sayings, mythological and symbolic images, folk speech and cultural codes – in the structure of written literature are highlighted. The purpose of the article is to scientifically demonstrate the close connection between folklore and modern literature in Turkish stories, to determine the significance of this issue in the methodology of research and literary studies. The results confirm that folklore elements are an important factor in ensuring national identity, aesthetic expression, and cultural continuity in the short story genre.

**Keywords:** Storytelling, Turkish storytelling, elements of folklore, literary studies, scientific research.

### ИССЛЕДОВАНИЕ ТУРЕЦКИХ СКАЗОК И ФОЛЬКЛОРНЫХ ЭЛЕМЕНТОВ В НИХ

Аннотация

В данной статье анализируется изучение турецкого повествования и фольклорных элементов в нем в литературоведении. Исследование рассматривает структурные особенности повествовательного жанра, вопрос национального типа и характера, социальный реализм и научные интерпретации литературоведов в рамках интертекстуального и постмодернистского подходов. Также освещаются функциональные и семантические функции фольклорных элементов – пословиц и изречений, мифологических и символических образов, народной речи и культурных кодов – в структуре письменной литературы с точки зрения литературоведения. Цель статьи – научно обосновать неразрывную связь фольклора и современной литературы в турецких произведениях, определить методологию исследования и значимость данного вопроса в литературоведении. Результаты подтверждают, что фольклорные элементы являются важным фактором обеспечения национальной идентичности, эстетического выражения и культурной преемственности в повествовательном жанре.

**Ключевые слова:** история, турецкое повествование, элементы фольклора, литературоведение, научные исследования.

### TURK HIKOYALARI VA ULARDAGI FOLKLOR UNSURLARI TADQIQI

Annotatsiya

Ushbu maqolada turk hikoyachiligi va undagi folklor unsurlarining adabiyotshunoslikda o'rganilishi tahlil qilinadi. Tadqiqotda hikoya janrining strukturaviy xususiyatlari, milliy tip va xarakter masalasi, ijtimoiy realizm hamda intertekstual va postmodern yondashuvlar doirasida adabiyotshunoslarning ilmiy talqinlari ko'rib chiqiladi. Shuningdek, folklor elementlari – maqol va matallar, mifologik va ramziy obrazlar, xalqona nutq hamda madaniy kodlar – yozma adabiyot tarkibida qanday funksional va semantik vazifalarni bajarishi adabiy nazariya nuqtayi nazaridan yoritiladi. Maqolaning maqsadi turk hikoyalarida folklor va zamonaviy adabiyot o'rtasidagi uzviy aloqani ilmiy asosda ko'rsatish, bu masalaning tadqiqot metodologiyasi va adabiyotshunoslikdagi ahamiyatini aniqlashdan iborat. Natijalar folklor unsurlarining hikoya janrida milliy identitet, estetik ifoda va madaniy davomiylikni ta'minlovchi muhim omil ekanligini tasdiqlaydi.

**Kalit so'zlar:** hikoya, turk hikoyachiligi, folklor unsurlari, adabiyotshunoslik, ilmiy tadqiqot.

**Kirish.** Turk adabiyotida hikoya janri milliy adabiy jarayonining muhim tarkibiy qismi bo'lib, tarixiy rivojlanish davomida turli bosqichlarni bosib o'tgan. XIX asr oxiridan boshlab shakllangan hikoya janri dastlab voqea markazli realizm modeli asosida taraqqiy etgan bo'lsa, XX asr davomida psixologik chuqurlik, subyektiv ong tasviri hamda modern va postmodern estetik tamoyillar bilan boyidi. Bu jarayon hikoya janrining ichki strukturasi, badiiy vositalari va estetik vazifalarini sezilarli darajada o'zgartirdi. Ayniqsa, folklor unsurlarining yozma adabiyot tarkibida qayta talqin qilinishi turk hikoyachiligining muhim xususiyatlaridan biriga aylandi.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Folklor va yozma adabiyot o'rtasidagi munosabat turk adabiyotshunosligida turli ilmiy yondashuvlar asosida o'rganilgan. Xususan, Mehmet Kaplan, Fethi Naci, Berna Moran, Pertev Naili Boratov, Jale

Parlalar ko'plab tadqiqotlar olib borganlar. Shunga qaramay, mavjud tadqiqotlarda folklor unsurlarining turk hikoyachiligining turli tarixiy bosqichlarida qanday o'zgarishlarga uchragani hamda "Vak'a", "Durum" hikoyalari va modern-postmodern nasr kontekstida ularning funksional o'zgarishlari yetarli darajada tizimlashtirilmagan. Aynan shu jihat mazkur tadqiqotning ilmiy muammosini belgilaydi. Mazkur maqolaning maqsadi turk hikoyachiligining tarixiy taraqqiyoti jarayonida folklor unsurlarining badiiy-funksional xususiyatlarini aniqlash, ularning estetik transformatsiyasini tahlil qilish hamda adabiyotshunoslikdagi asosiy ilmiy yondashuvlarni qiyosiy asosda sistemalashtirishdan iborat.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Maqolada qiyosiy-tarixiy, strukturaviy, narratologik hamda madaniy-tahliliy metodlardan foydalanildi. Mazkur metodlar yordamida folklor unsurlarining

yozma adabiyotda qanday namoyon bo'lishi va ular o'rtasidagi bog'liqlikni tahlil qilish imkoniyati paydo bo'ladi.

**Tahlil va natijalar.** Turk adabiyotida hikoya janri ko'plab olimlar tomonidan o'rganilgan, tahlil qilingan. Jumladan, turk hikoyachiligida "Olay hikoyasi" (Vak'a hikoyasi) syujet markazli, dramatik qurilishga ega bo'lgan hikoya turidir. Bu model XIX asr fransuz realizmi ta'sirida shakllangan bo'lib, ayniqsa Ge de Mopassan an'anasi bilan bog'lanadi.

Mopassan modelida hikoya:

aniq konfliktga ega;

kompozitsion jihatdan siqiq;

yakunda kutilmagan burilishga ega bo'ladi.

Turk adabiyotida ushbu model Tanzimat davridan boshlab o'zlashtirildi va milliy zamin asosida qayta shakllandi. "Olay" hikoyasining strukturaviy belgilari quyidagilardan iborat:

markaziy voqea (yolg'iz konfliktli tuzilma);

aniq boshlanish-rivoj-kulminatsiya-yechim;

obyektiv yoki kuzatuvchi hikoyachi;

vaqt va makonning siqiligi;

kutilmagan yoki dramatik yakun.

Bu turda psixologik chuqurlikdan ko'ra voqea dinamikasi ustuvor turadi.

Fethi Naci mazkur hikoyani ijtimoiy realizm kontekstida tahlil qilgan. U "Vak'a" hikoyasining jamiyatdagi sinfiy munosabatlarni aks ettirishi, real hayot faktlariga tayanganligi, ijtimoiy muammolarni dramatik syujet orqali berishi kabi jihatlarini o'rgangan. Uning fikricha, Ömer Seyfettin hikoyalarida syujet shunchaki voqea emas, balki ideologik va ijtimoiy mazmun tashuvchidir [1].

Navbatdagi turk adabiyotshunos olimi Berna Moran hikoyani formal jihatdan o'rganadi. U ayniqsa: hikoyachi tipi (birinchi shaxs, uchinchi shaxs), fikr (diqqat markazda), zamon tashkiloti, kompozitsion birlik masalalarini strukturaviy metod bilan tahlil qilgan [2].

Moran "Vak'a hikoyasining yopiq kompozitsiyaga ega ekanligini va syujetning qat'iy nazorat ostida qurilishini ta'kidlaydi.

Mehmet Kaplan "Vak'a hikoyasidagi qahramon tipologiyasini o'rganadi. Uning tadqiqotlarida: hikoyada xarakter ko'pincha tip darajasida qolishi, individual psixologik chuqurlikdan ko'ra ijtimoiy vakillik ustuvorligi ko'rsatiladi. Kaplan fikricha, bu turdagi hikoya dramatik effektini kuchaytirish uchun xarakterdan ko'ra voqeani markazga qo'yadi[3].

XX asr boshlarida "Vak'a" hikoyasi ustun mavqega ega bo'ldi. Ammo keyinchalik psixologik chuqurlik kuchaydi, ochiq yakunlar paydo bo'ldi, syujet zaiflashdi. Natijada "Durum hikoyasi" modeli rivojlandi. Shu sababli adabiyotshunoslar vak'a hikoyasini turk hikoyachiligidagi "klassik bosqich" deb ataydilar.

"Durum" hikoyasi (Çehov Tarzi Hikoyasi). Turk hikoyachiligida "Durum hikoyasi" voqea markazli modeldan farqli ravishda ruhiy holat, lahza va ichki kechinmani markazga qo'yadigan hikoya turidir. Bu model rus realizmi, xususan Anton Chexov an'anasi bilan bog'liq. Chexov modelida hikoya aniq kulminatsiyasiz bo'lishi mumkin, ochiq yakun bilan tugaydi, dramatik voqega emas, hayotning oddiy bir lahzasiga tayanadi, ichki psixologik harakatni ko'rsatadi.

Turk adabiyotida bu model XX asr boshlaridan boshlab shakllanib, ayniqsa Respublika davrida yetuk bosqichga ko'tarildi. Durum hikoyasining strukturaviy belgilari quyidagilar:

Syujetning zaiflashuvi yoki ikkinchi o'ringa tushishi;

Ichki monolog va ruhiy tasvirning kuchayishi;

Ochiq (muallaq) yakun;

Oddiy hayotiy vaziyatlardan parchalar;

Kuzatuvchi yoki ichki hikoyachi;

Bu turda dramatik konflikt o'rnini ruhiy tebranish va sezgi egallaydi. Sait Faik turk hikoyachiligining eng yirik vakili hisoblanadi. U hikoyalarida Istanbulning oddiy insonlarini, yolg'izlik va begonalashuvini, inson ruhining nozik qatlamlarini tasvirlaydi [4]. Adabiyotshunoslar uning hikoyalarini "olaysiz hikoyasi" modeli deb baholaydilar. Unda voqea emas, kayfiyat ustuvor.

Memduh Şevket Esendal turk hikoyasiga minimalistik ifoda olib kirgan yozuvchidir. Uning hikoyalarida: kundalik hayot lavhaları, soddalik, ichki sokin dramatism, ustuvorlik qiladi. U Chexov modelini milliy hayot muhitiga moslashtirgan yozuvchi sifatida qaraladi.

Turk hikoyachiligida salmoqli ijod qilgan olimlar yondashuvlariga to'xtaladigan bo'lsak, Mehmet Kaplan psixologik tahlil va tip masalasiga chuqur to'xtalgan adib sanaladi. U "Durum" hikoyasini psixologik realizm doirasida o'rganadi. Olim quyidagilarni ta'kidlaydi: bu turda xarakter ichki dinamika orqali ochiladi, qahramon tip emas, individual shaxs sifatida beriladi, ruhiy tasvir voqeadan ustun turadi. Kaplan fikricha, durum hikoyasi inson ruhiyatini anglashga qaratilgan estetik modeldir [5].

Berna Morna strukturaviy metod asosida "Durum" hikoyasini tahlil qilgan. U ayniqsa: fikrning ichki xarakterga yo'naltirilishini, zamonning subektivlashuvini, hikoyachi va bosh qahramon o'rtasidagi masofaning qisqarishini ko'rsatadi. Moran bu turdagi hikoyani "yopiq syujetli emas, ochiq strukturali matn" sifatida tavsiflaydi [6].

Jale Parla modern turk hikoyalarini modernizm kontekstida tahlil qiladi. Uning fikricha, "Durum" hikoyasi:

individual ongni markazga olib chiqdi;

tashqi voqea ichki tafakkur bilan almashtirildi;

matn subektiv idrok maydoniga aylandi. Bu yondashuv hikoyani shunchaki voqea emas, balki ong tajribasi sifatida ko'rishga imkon beradi.

Turk hikoyachiligida modern bosqich XX asr o'rtalaridan boshlab shakllandi. Bu davrda hikoya tashqi voqeadan ichki ongga o'tdi, syujetdan ko'ra til va shakl muhimlashdi, individual shaxs va begonalashuv markazga chiqdi. Modern hikoya Yevropa modernizmi bilan uzviy bog'liq bo'lib, psixologizm, ong oqimi, vaqtning subektivlashuvi kabi xususiyatlarni o'zlashtirdi. Keyingi bosqichda esa postmodern elementlar - intertekstualitet, metafiksion usul, fragmentarlik paydo bo'ldi. Modern hikoyaning asosiy xususiyatlari:

Syujetning parchalanishi;

Ong oqimi va ichki monolog;

Subektiv vaqt va xotira strukturasi;

Yolg'izlik va identitet muammosi;

Tilning estetik tajriba maydoniga aylanishi;

XX asr oxiriga kelib turk hikoyalarida postmodern unsurlar kuchaydi. Unda:

matnlararo bo'g'liqlik (intertekstuallik);

ironik pozitsiya;

muallifning matnga aralashuvi;

real va xayoliy chegaraning buzilishi.

Bu bosqichda hikoya o'zining an'anaviy chegaralarini kengaytirdi.

Yıldız Ecevit turk modern va postmodern hikoyasini strukturaviy va semiotik jihatdan o'rganadi. U fragmentarlikni estetik prinsip sifatida, intertekstuallikni ongli strategiya sifatida, o'quvchini matnning hamkor yaratuvchisi sifatida tahlil qiladi [7].

Nurdan Gürbilek modern turk hikoyasini madaniy psixologiya doirasida o'rganadi. U ayniqsa, shaxsiylik inqirozi,

modern jamiyatdagi begonalashuv, til va sukunat muammosi kabi jihatlarini tahlil qilgan [8].

Jale Parla modern turk nasrida ong markazli struktura, klassik realizmning yemirilishi, matnning o'zini muhokama qilishi (metafiksiyonlik) kabi jarayonlarni ilmiy asosda izohlagan.

Turk hikoyalardagi folklor unsurlari adabiyotshunoslikda bir necha yo'nalishda o'rganilgan bo'lib, har bir yondashuv bu hodisaning turli qatlamlarini ochib beradi. Avvalo, Mehmet Kaplan folklor elementlarini milliy tip va xarakter masalasi bilan bog'lab tahlil qilgan. Uning fikricha, hikoyalardagi xalqona obrazlar va maqol-matallar milliy ruhni ifodalovchi estetik vosita bo'lib, personajning ijtimoiy va ma'naviy identitetini ochishga xizmat qiladi. Kaplan yondashuvi folklori faqat bezak emas, balki milliy ongning adabiy ifodasi sifatida ko'rishga imkon bergan.

Ikkinchi yo'nalish ijtimoiy realizm va jamiyat kontekstiga qaratilgan bo'lib, bu masalada Fethi Naci tadqiqotlari muhim o'rin tutadi. U hikoyalardagi folklor unsurlarini jamiyatdagi qadriyatlar, sinfiy munosabatlar va tarixiy voqe'lik bilan bog'lab tahlil qilgan. Nacining yondashuvi bo'yicha folklor motivlari ijtimoiy muhitni aks ettiruvchi vosita bo'lib, xalq hayotining real tasvirini kuchaytiradi. Shu tariqa folklor unsuri romantik bezakdan ijtimoiy mazmun tashuvchiga aylanadi.

Strukturaviy va narratologik yondashuv esa Berna Moran tadqiqotlarida yaqqol ko'rinadi. Moran hikoyalardagi folklor elementlarini matn strukturasi va narrativ tashkilot bilan bog'lab o'rganadi. Uning fikricha, folklor motivlari intertekstual qatlam hosil qilib, hikoyaga qo'shimcha semantik ma'no beradi. Ya'ni xalq ertaklari va mifologik ishoralar zamonaviy matnda yangi talqin oladi va o'quvchi idroki uchun kengroq ma'no maydoni yaratadi.

Folklorshunoslik yo'nalishi esa Pertev Naili Boratav tomonidan ishlab chiqilgan metodologiyaga tayanadi. Boratav xalq og'zaki ijodining motiv va struktur elementlarini tasniflab, yozma adabiyotdagi folklor izlarini aniqlash uchun ilmiy asos yaratgan. Uning ishlari hikoyalardagi folklor unsurlarini tarixiy va tipologik jihatdan o'rganishga imkon beradi [9].

Zamonaviy davrda bu masala postmodern va madaniy tahlil yo'nalishlarida ham o'rganilmoqda. Masalan, Yıldız Ecevit intertekstualitet va postmodern struktura nuqtayi nazaridan folklor unsurlarining qayta talqinini tahlil qiladi. Uning yondashuvi bo'yicha zamonaviy hikoyalarda folklor motivlari ironik yoki dekonstruktiv shaklda qo'llanib, matnlararo dialog hosil qiladi.

Shuningdek, Nurdan Gürbilek madaniy xotira va zamonaviy shaxs muammosini o'rganib, folklor elementlarini identitet va kollektiv xotira bilan bog'laydi. Uning tadqiqotlarida folklor unsuri modern jamiyatdagi ma'naviy

inqiroz va an'ana-zamonaviylik ziddiyatini ifodalovchi ramziy vosita sifatida talqin qilinadi.

Umumiy xulosaga ko'ra, turk hikoyalardagi folklor unsurlari bir necha ilmiy yo'nalishda o'rganilgan. Bu yondashuvlar folklori adabiyotning ajralmas qismi sifatida ko'rsatadi. Folklor elementlari hikoyaga milliy ruh beradi, unga chuqur ma'no yuklaydi va madaniyatning davom etishini ko'rsatadi. Shuning uchun bugungi adabiyotshunoslikda folklor unsurlari faqat tarixiy manba sifatida emas, balki badiiy va ijtimoiy-madaniy hodisa sifatida ham o'rganiladi.

**Xulosa va takliflar.** Turk hikoyachiligining tarixiy taraqqiyoti shuni ko'rsatadiki, folklor unsurlari yozma adabiyot tarkibida o'zgarish holatida saqlanmay, balki har bir bosqichda ma'lum bir o'zgarishlarga uchragan. "Vak'a" hikoyasi davrida folklor motivlari asosan dramatik syujetni kuchaytiruvchi, milliy o'ziga xosligini va ijtimoiy mazmunni ifodalovchi vosita sifatida namoyon bo'lgan. "Durum" hikoyasi bosqichida esa folklor elementlari tashqi voqeani emas, ichki ruhiy qatlamni chuqurlashtirishga xizmat qilgan. Modern va postmodern nasrda folklor motivlari hikoyada ham ishlatilib, ularni boyitadi, ramziy ma'no beradi va badiiy ifodani chuqurlashtirgan. Demak, folklor unsurlari hikoya janrining evolyutsiyasi bilan birga estetik vazifasini ham o'zgartirib bergan.

Adabiyotshunoslikdagi yondashuvlar ham ushbu o'zgarishlarni turlicha talqin qiladi. Mehmet Kaplan folklori milliy tip va xarakter masalasi bilan bog'lab, uni milliy ongning badiiy ifodasi sifatida ko'rsa, Fethi Naci ijtimoiy realizm doirasida uning jamiyat va tarix bilan aloqasini ochib beradi. Berna Moran folklor motivlarini matn strukturasi va narrativ tizim ichida tahlil qilib, ularning semantik funksiyasini ko'rsatadi. Folklorshunoslik metodologiyasi esa Pertev Naili Boratav tadqiqotlarida ilmiy asoslangan tasnif va tipologik model orqali izohlangan. Zamonaviy talqinlarda, xususan Yıldız Ecevit qarashlarida folklor unsurlari intertekstual va postmodern estetik strategiya sifatida baholanadi.

Shu tariqa, turk hikoyalardagi folklor unsurlari bir vaqtning o'zida milliy ruh, ijtimoiy ong, strukturaviy birlik va madaniy xotira funksiyalarini bajaruvchi ko'p qatlamli badiiy hodisa ekanligi aniqlanadi. Ular hikoya janrining tarixiy ildizlarini saqlagan holda zamonaviy shakllar bilan uyg'unlashadi va yozma adabiyot bilan xalq og'zaki ijodi o'rtasida uzviy madaniy aloqani ta'minlaydi. Natijada folklor masalasi turk adabiyotshunosligida faqat tarixiy manba yoki bezak unsuri sifatida emas, balki janr evolyutsiyasi, ilmiy yondashuvlar va hikoyalardagi o'zgarishlar bilan bog'liq ilmiy muammo sifatida namoyon bo'ladi. Bu esa turk hikoyachiligini madaniy va nazariy kontekstda chuqurroq o'rganish zaruratini belgilaydi.

#### ADABIYOTLAR

1. Fethi Naci. Türkiye'de Roman ve Toplum. Gerçek Yayınları, 1981.
2. Berna Moran. Edebiyat Kuramları ve Eleştirisi. İletişim Yayınları, 1994.
3. Mehmet Kaplan. Hikâye Tahlilleri. Dergâh Yayınları, 1979.
4. Sait Faik Abasıyanık. Lüzumsuz Adam. Varlık Yayınları, 1948.
5. Kaplan, Mehmet. Türk Edebiyatı Üzerine Araştırmalar. Dergâh Yayınları, 1992.
6. Yıldız Ecevit. Postmodern Türk Romanında Anlatı Stratejileri. İletişim Yayınları, 2001.
7. Nurdan Gürbilek. Vitrinde Yaşamak. Metis Yayınları, 1992.
8. Pertev Naili Boratav. 100 Soruda Türk Halk Edebiyatı. Gerçek Yayınevi, 1969.
9. Boratav, Pertev Naili. Folklor ve Edebiyat. Adam Yayınları, 1982.
10. Dundes, Alan. Folklore: Critical Concepts in Literary and Cultural Studies. Routledge, 2005.
11. Ömer Seyfettin. Hikâyeler (to'plam nashri). Ötügen Yayınları, 2011 (asl hikoyalar 1910–1920).
12. Mustafa Kutlu. Yoksulluk İçimizde. Dergâh Yayınları, 1981.
13. Rasim Özdenören. Gül Yetiştiren Adam. Dergâh Yayınları, 1979.
14. Başgöz, İlhan. Folklore Studies and Nationalism in Turkey. Journal of the Folklore Institute, 1972.